

O'zbek va tojik xalqlari – bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning ikki irmog'i

Bugun 14-sentyabr kuni Dushanbe shahrida "**O'zbekiston va Tojikiston rahbarlarining do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va ishonchni mustahkamlashga qo'shgan hissasi, tojik-o'zbek strategik hamkorligining yangi sahifasining ochilishi**" mavzusidagi ikki kunlik ilmiy-amaliy anjumani o'z ishini boshladi.



Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasi va O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan tadbirida ikki mamlakatning taniqli olim va tadqiqotchilari, ilmiy-tadqiqot va tahliliy tuzilmalar, shuningdek, oliy o'quv muassasalarining yetakchi mutaxassislari yig'ildi.

O'zbekiston delegatsiyasiga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikerining birinchi o'rinbosari, akademik A.Saidov rahbarlik qilmoqda.

Tadbirida so'zga chiqqan Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) direktori **Eldor Aripov** ushbu anjumanning juda muhim va dolzarb ekani, uning nomlanishi esa o'zbek-tojik hamkorligining bugungi ruhini aniq aks ettirishini ta'kidladi.



SMTI vakilining so'zlariga ko'ra, do'stona munosabatlar va mamlakatlar o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik munosabatlari sifat jihatidan yangi darajaga chiqishi, avvalo, **O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlarining siyosiy irodasi, yuksak ishonchi va strategik qarashlari natijasidir.**

Prezident Sh.Mirziyoyevning Markaziy Osiyo mintaqasini O'zbekiston tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilashi asnosida Dushanbe bilan munosabatlarning tizimli ravishda qayta tiklanishi ham ushbu siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganining yorqin namunasidir.

E.Aripovning so'zlariga ko'ra, yuqori darajadagi muloqot faol va doimiy xarakterga ega. Xususan, **2018-yilda ikki tomonlama munosabatlar tarixida birinchi marta o'zaro davlat tashriflari bo'lib o'tdi. Umuman olganda, 2016-yil sentyabr oyidan boshlab O'zbekiston va Tojikiston rahbarlari turli xil sammitlar doirasida taxminan 15-marta uchrashishdi.**

Qisqa vaqt ichida mamlakatlar deyarli barcha sohalarda misli ko'rilmagan yutuqlarga erishdilar.

Xususan, 2015-yildan beri **o'zaro savdo hajmi deyarli 3 baravarga oshdi. Pandemiya davom etayotganiga qaramay, joriy yilning 7 oyida savdo hajmi 2015 yoki 2016-yil bilan solishtirganda oshdi.**

Shuningdek, qo'shma korxonalar soni o'sib bormoqda - 2017-yildan boshlab O'zbekistonda **qo'shma korxonalar soni qariyb 4 baravarga oshdi.** Jumladan, agar **2017-yilda O'zbekistonda 100 % tojik kapitali ishtirokida 1 ta korxonaga bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 70 taga yetgan, qo'shma korxonalarining umumiy soni esa 170 dan ortiqni tashkil qilmoqda.**

O'tgan yili O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida avtomobil transporti orqali yuk tashuvlari hajmi 60 foizga o'sdi. 2017-yildan buyon "O'zbekiston havo yo'llari" MAK Tojikiston yo'nalishi bo'yicha yuk tashuvlari hajmini tashishni 6 baravarga oshirdi.

Ayni vaqtda, o'tgan yillarda go'yoki yechimi bo'lmagan, murakkab va nozik hisoblangan - chegara va suv-

energetika sohasidagi masalalar ham o'z yechimini topdi.

Eng muhimi, E.Aripov ta'kidlaganidek, bu o'zgarishlarning barchasi oddiy fuqarolar hayotida sezilmoqda. Zero, ko'p yillar davomida birinchi marta ular o'z qarindoshlari va do'stlarinikiga to'siqsiz va erkin tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Hozirda **O'zbekiston-Tojikiston chegarasini har kuni 20 mingga yaqin kishi o'tadi. Uch yil oldin esa bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 3-3,5 mingni tashkil qilar edi.**


Bunday ijobiy o'zgarishlar, shubhasiz, **xalqlarimizning ko'p asrlik birdamlik va do'stona yashash tarixiga asoslangan yuqori darajadagi ishonchli siyosiy muloqotni tashkil etish tufayli amalga oshdi.**

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev adolatli ravishda ta'kidlaganidek: *"O'zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikkita shoxiga, bitta daryoning ikkita irmog'iga o'xshaydi. Biz xalqlarimiz do'stligini mustahkamlashimiz va himoya qilishimiz kerak"*.

E.Aripovning fikricha, Toshkent va Dushanbe o'rtasidagi munosabatlar, ikki davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaratishning "namunaviy modeli" bo'lib xizmat qilishi uchun barcha asoslar yetarli.

O'zbekiston va Tojikiston **o'tkir muammolar va qarama-qarshiliklar to'siqlar emas, balki muloqot va muzokaralar uchun mavzu bo'lishi mumkinligini amalda ko'rsatishdi.** Bu mintaqadagi boshqa davlatlar tomonidan muhim formula sifatida qo'llanishi mumkin. Zero, yakunda **Markaziy Osiyodagi barqarorlik va farovonlik — mintaqadagi barcha davlatlar o'rtasidagi ishonchli aloqalarga asoslanadi va rivojlanadi.**

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi barqarorlikni biz faqatgina barcha keskin ziddiyatlarni hal qilish orqali mustahkamlay olamiz, mintaqada infratuzilma, energetika, transport sohalarida o'zaro manfaatli qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun sharoit yaratamiz. O'z navbatida, bunday loyihalar mamlakatlarimiz rivojlanishining drayveri bo'lishi hamda xorijiy investorlar uchun jozibadorlik oshigiga xizmat qilish mumkin, - deya qo'shimcha qildi SMTI vakili.



Yakunda E.Aripov o'zbek-tojik munosabatlari uchun **yuqori darajadagi o'zaro tushunish va ishonch muhitini saqlash** mintaqaning boshqa davlatlari uchun o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning **namunasi** bo'lib qolish muhimligini ta'kidladi.

Konferensiya davom etmoqda, plenar majlislardan tashqari, seksiyalarda ham uchrashuvlar ko'zda tutilgan bo'lib, unda ikki mamlakat olimlari va mutaxassislari o'zaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlashning qator masalalarini muhokama qiladilar.